

OLY TA'LIMDA JISMONIY TARBIYANI O'QITISH JARAYONIDA  
TALABALARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-  
PSIXOLOGIK ASOSLARI

Turayev Abduvaxob Bahodirovich

Axmadov Olimjon Shodmonovich

*Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Talabalarga ta'lim-tarbiya hamda jismoniy tarbiyani o'qitish jarayonida irodaviy sifatlarni shakllantirishda pedagogik-psixologik yondashish.*

**Kalit so'zlar:** *jismoniy tarbiya, iroda, pedagogika, psixologiya, bilim, oliy ta'lim, talaba, dars, mashg'ulot, sport, chiniqish, ta'lim*

**Annotation:** *Pedagogical and psychological approach to the formation of volitional qualities in the process of teaching physical education in the process of educating students.*

**Key words:** *physical education, will, pedagogy, psychology, knowledge, higher education, student, lesson, exercise, sport, exercise, education*

**Аннотация:** *Педагогический и психологический подход к формированию волевых качеств в процессе обучения физическому воспитанию в процессе обучения студентов.*

**Ключевые слова:** *физическое воспитание, воля, педагогика, психология, знания, высшее образование, студент, урок, упражнение, спорт, упражнение, образование*

### **Kirish**

Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalarni qamrab olgan holda keng islohotlar amalga oshirildi hamda bu ishlar hozirgi davrda yangi bosqich va keng ko'lamda yanada izchil davom ettirilmoqda. U xoh davlat boshqaruv tuzilmasi bo'lsin, xoh sog'liqni saqlash, sport, ta'lim - qo'yingki, barcha jabhalarda ijobiy natijasini bermoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama etuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (selektsiya) jarayoniga innovasion shakllar va usullarni joriy etilmogda.

Respublikamizda sport sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bolalar sportiga katta e'tibor qaratilib, qator tadbir va o'zgarishlar amalga oshirilib, mamlakatimizning barcha hududlarida sport inshootlari zamonaviy talablar doirasida qurilib, ular zamonaviy sport uskunalari bilan jihozlanmoqda. Bunday haratlar asosida yaratilayotgan sharoit talabalarda saportga bo'lgan munosabat o'zgarishiga olib kelmoqda. Endi ular faqat bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishga emas, balki sport salomatlik va ko'rkamlilikning asosi ekanligini anglab muntazam shug'ullanib borishga odatlanmoqdalar. Rivojlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda yangi ijtimoiy ongi shakllantirish ikkita asosiy omillar ta'siri ostida amalga oshadi: to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy amaliyot va maqsadli ta'lim-tarbiya jarayoni orqali. Har-bir inson faqatgina ta'lim tizimi orqali, ijtimoiy tarbiya va rivojlanish, kasbiy layoqatlarni egallash orqali shaxs bo'lib shakllanadi. Qachonki inson jamoaviy ahamiyatli vazifalarni bajarish layoqatlarni egallaganda, ijtimoiy rollarni o'zlashtira boshlaganda, o'zining maqsadi va javobgarligini ijodiy anglab yetganda, jamiyatning boshqa a'zolari bilan mustaqil ravishda munosabatga kirisha boshlaganda shaxsning ijtimoiylashuvi ro'y beradi. Barchaga ma'lumki kasbiy tayyorlangan, ta'lim olgan, ma'naviy va axloqiy boy, jismoniy sog'lom shaxssiz iqtisodiyotda, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda, davlat va jamiyatda rivojlanish, o'sish bo'lmaydi. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor maqsadi uzluksiz ta'lim tizimi salohiyati, ijtimoiy institutlarning o'zaromunosabati, shuningdek, maqsadli boy pedagogik jismoniy tarbiya va sportning ulkan imkoniyatini qo'llash orqali barkamol shaxsni tarbiyalash hisoblanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida shaxsni shakllanishidagi erishgan yutuqlari qanchalik jismoniy tarbiyaning maxsus vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirilganligiga ko'ra hamda ushbu jarayonda qanchalik barkamol shaxsning rivojlanishidagi imkoniyati qo'llanilishiga ko'ra aniqlanadi. Bunday tarbiya ishining metodikasiga oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va boshqa har bir tarbiyachi ega bo'lishi kerak.

### **Muxokama va natijalar**

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jismoniy tarbiya va sport – xalq madaniyatining ajralmas qismidir, mamlakatning har-bir fuqarosini jismoniy va axloqiy mukammallashtirishini ta'minlashning asosidir. Yosh avlodni milliy g'oya asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash va himoya

qilishini, sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Talabavoshlarda faol hayotiy pozitsiya, axloqiylik, ezgulik va insoniylik ideallarini tarbiyalash jarayonida jismoniy madaniyat va sport formalari, metod va vositalaridan foydalanish asosiy ustuvor omillardan biri bo'lishi kerak. Talabalarda jismoniy tarbiya jarayoni orqali axloqiy xulq-odoblari, irodani rivojlantiruvchi sifatlar: matonatlilik, qat'iyatlilik, jasurlik, og'ir-vazminlik, o'zini tuta bilish ko'nikmalari shakllanib boradi. Qoidagi ko'ra jismoniy mashqlar jamoada amalga oshiriladi, shuning uchun ham hamkorlikdagi harakat faoliyatining mazmuni va uning pedagogik boshqarilishi o'quvchilarning o'zlarini jamoada qanday tutishlarini bilishlariga, uning maqsadlariga bo'ysunishiga, uni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'yinlarda, musobaqalarda raqibga, jamoadagi o'rtog'iga, hakamlarga maxsus munosabatlar shakllanib boradi. Sport etikasi sport faoliyati jarayonida belgilangan qoida va xulq-atvor qoidalariga amal qilish bilan bog'langan bo'lib, unda ushbu qoidalar mustahkanlanadi va kundalik hayot voqeligiga tadbiiq etilib boriladi. Og'ir-vazminlik, kamtarlik, insonlarga, raqiblariga ham hurmatda bo'lish, adolatsizlikka hamda sport kurashidagi g'irrom vaziyatlarga, holatlarga chiday olmaslik, mehnatsevarlik, intizomlilik – bunday sifatarni tarbiyalash barcha jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida hamisha alohida ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Inson turli-xil jismoniy mashqlarni egallashi va faol ishlata olishi orqali o'zining jismoniy holati va tayyorgarligini yaxshilaydi, jismoniy jihatdan mukammallashib boradi. Jismoniy mukammallik shaxsning shunday jismoniy imkoniyatlari darajasini aks ettiradiki, qaysiki unga ular tabiiy kuchlarini to'liq amalga oshirish imkoniyatini beradi, jamiyatga zarur bo'lgan va unga kerakli bo'lgan ijtimoiy-mehnat faoliyati turlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, uning moslashuv imkoniyatlarini kuchaytirish va shu asosda ijtimoiy unumli o'sishni ta'minlab beradi. Jismoniy mukammallik darajasi uzluksiz rivojlanish uchun qanchalik asoslarni berishi bilan birga, qaysi darajada yangi sifat o'zgarishlariga "Ochiq" ligiga ko'ra va shaxsning mukammallashib borishda sharoitlarni yaratilganligiga ko'ra aniqlanadi. Jismoniy mukammallashish shaxsning intilishlarini xarakterlaydi, uning tanlangan sport turi yoki jismoniy-madaniy va sport faoliyati orqali rivojlanib borish jarayonini qonuniy ko'rib chiqadi, dinamik holat sifatida yaxlit rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga uning morfofunktsional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ko'ra, uning individualligini ochish va rivojlantirish vositalarni tanlashni ta'minlaydi. Shuning uchun ham jismoniy mukammallik yangi yetishib chiqayotgan mutaxassisning shunchasi xohlovchi yoki yoqtiruvchi sifati bo'lmasdan, balki uning shaxsiy xususiyatlari tarkibining zarur va kerakli elementi bo'lib hisoblanadi. Talabalarining ham jismoniy-madaniy va sport faoliyati – jamoaviy va shaxsiy qiziqishlarni, jamoaviy zarur bo'lgan individual ehtiyojlarni shakllantiruvchi omillarni birlashtiruvchi samarali mexanizmlardan biridir. Uning maxsuslashtirilgan yadrosi bo'lib, shaxsning jismoniy va ma'naviy muhitini rivojlantiruvchi, uni me'yorlar, ideallar, qadriyatli mo'ljallar bilan boyituvchi munosabatlar hisoblanadi. Ushbu holat va jarayonda shaxs xususiyatlarida ijtimoiy malakaning vujudga kelishi, rivojlanib borishi ro'y beradi va uning tabiiy ichki kuchlarining tashqarida natija berishi ko'zatiladi. Bunday faoliyatning maqsadli xususiyati shaxsning ijtimoiy faolligi oshishining qudratli vositasi qilib boradi. Shaxsning jismoniy madaniyati o'zini uchta asosiy yo'nalishlarda namoyon qiladi. Birinchidan, o'z-o'zini rivojlantirish layoqatini aniqlaydi, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy



malakasi bilan asoslangan “O’zi”ni rivojlantirishga yo’nalganligini aks ettiradi, ijodiy “O’z-o’zini qurishga” intilishini, o’z-o’zini mukammallashtirishini ta’minlaydi. Ikkinchidan, jismoniy madaniyat - o’z faoliyatini tashkil qiluvchi, tashabbus ko’rsatuvchi yangi bo’lajak mutaxassisning asosidir, uning kasbiy mehnati va predmetiga yo’naltilgan jismoniy madaniyat vositalarini qo’llashda ijodkorlikni namoyon qiladi. Uchinchidan, jismoniy madaniyat - shaxsning “Boshqalar” bilan bo’lgan jismoniy-madaniy va sport, jamoaviy va kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarga yo’naltilgan ijodkorligini aks ettiradi hamda o’z ustida ishlash ko’nikma va malakalarini rivojlanib borishni ta’minlash bilan birga ruhiy quvvatlarini ham boyitib, mustahkamlab boradi. Ushbu faoliyatda shaxsning yaqinlari, qarindoshlari va atrofdagilari, kasbdoshlari bilan qanchalik aloqalari keng va boy bo’lsa, shunchalik uning ichki-subʼektiv olamini namoyon qilish maydoni boyib, kengayib boradi. Sport nafaqat jismoniy, balki ma’naviy-mafkuraviy barkamollikka erishishda eng muhim omillardan biri xisoblanadi.

Tarixchilarning shaxodat berishicha, Turon zaminida er.av. III-I asrlardayoq ajdodlarimiz kurash, nayza otish, qilichbozlik, kamondan otish, shaxmat, uloq, poyga kabi insonni kamolga yetkazuvchi musobaqalarni ommaviy ravishda o’tkazib kelgan. Fidoiy xalqimiz necha yuz yillar davomida har bir uyinni qalb quri bilan yaratdi, sayqalladi va mukammalashtirdi. Saralangan o’yin turlarini kelgusi avlodlar uchun ko’z qorachigiday asrab-avaylab kelindi. Chunki, jismoniy tarbiya va sport jismoniy, axloqiy barkamollikka erishishning muhim omilidir.

Sport irodani, odamning maqsadga erishishga intilishini mustahkamlaydi, qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan chidashga o’rgatadi, odamda g’alabaga ishonch, Vatanimiz, xalqimiz shon-shuhratini jahon hamjamiyati oldida ulug’laydi, yutuqlardan faxrlanish hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarda faol hayotiy pozitsiyani, ma’naviyatni, ezgulik va insonparvarlik ideallarini tarbiyalash jismoniy tarbiya va sport vositalari, shakllari va usullaridan foydalanishning ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanmog’i kerak.

Jismoniy mashqlarning samaradorligi birinchi navbatda ularning mazmuniga bog’liqdir. Sport fiziologlari ta’rifiga ko’ra, jismoniy mashqlar mazmuni bu mashq paytida inson organizmida sodir bo’ladigan fiziologik, psixologik va biomexanik jarayonlarning kombinatsiyasidir. Jismoniy mashqlar mazmuni ularning sog’lomlashtiruvchi ahamiyatini, tarbiyaviy rolini va biz uchun ayniqsa muhim bo’lgan shaxs xususiyatlarining rivojlanishiga ta’sirini belgilaydi.

Jismoniy mashqlarning shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirishga ta’siri shundan iboratki, jismoniy mashqlar jarayonida turli xil qiyinchiliklarni yengib o’tish va emotsional tuyg’ularini boshqarish, hayotiy zarur sifatlar, jumladan irodaviy sifatlar rivojlanib boradi. Maktabda jismoniy faollikning ko’p qismi tengdoshlar guruhi bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko’p hollarda bitta o’quvchining harakatlari boshqalarning harakatlarini belgilaydi, bu ayniqsa sport musobaqalari va ochiq o’yinlarda aniq namoyon bo’ladi. O’zini tiya bilish qobiliyati, jamoaning irodasiga bo’ysunish, bitta to’g’ri qarorni topish va shaxsiy ambitsiyalaridan qat’i nazar, do’stiga yordam berish - bu jismoniy mashqlar orqali faol ravishda shakllanadigan irodaviy sifatlardir.

Sport irodani, odamning maqsadga erishishga intilishini mustahkamlaydi, qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan chidashga o'rgatadi, odamda g'alabaga ishonch, Vatanimiz, xalqimiz shon-shuhratini jahon hamjamiyati oldida ulug'laydi, yutuqlardan faxrlanish hissini tarbiyalaydi.

Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarda faol hayotiy pozitsiyani, ma'naviyatni, ezgulik va insonparvarlik ideallarini tarbiyalash jismoniy tarbiya va sport vositalari, shakllari va usullaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmog'i kerak.

Jismoniy mashqlarning samaradorligi birinchi navbatda ularning mazmuniga bog'liqdir. Sport fiziologlari ta'rifiga ko'ra, jismoniy mashqlar mazmuni bu mashq paytida inson organizmida sodir bo'ladigan fiziologik, psixologik va biomexanik jarayonlarning kombinatsiyasidir. Jismoniy mashqlar mazmuni ularning sog'lomlashtiruvchi ahamiyatini, tarbiyaviy rolini va biz uchun ayniqsa muhim bo'lgan shaxs xususiyatlarining rivojlanishiga ta'sirini belgilaydi.

Jismoniy mashqlarning shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirishga ta'siri shundan iboratki, jismoniy mashqlar jarayonida turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tish va emotsional tuyg'ularini boshqarish, hayotiy zarur sifatlar, jumladan irodaviy sifatlar rivojlanib boradi. Maktabda jismoniy faollikning ko'p qismi tengdoshlar guruhi bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko'p hollarda bitta o'quvchining harakatlari boshqalarning harakatlarini belgilaydi, bu ayniqsa sport musobaqalari va ochiq o'yinlarda aniq namoyon bo'ladi. O'zini tiya bilish qobiliyati, jamoaning irodasiga bo'ysunish, bitta to'g'ri qarorni topish va shaxsiy ambitsiyalaridan qat'i nazar, do'stiga yordam berish - bu jismoniy mashqlar orqali faol ravishda shakllanadigan irodaviy sifatlardir.

Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadiganlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Meteorologik sharoitlarning o'zgarishi jismoniy faoliyatni faollashtirishga yordam berishi, jismoniy mashqlarni bajarishda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi va natijada irodaviy sifatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishi mumkin. O'quvchilarning jismoniy tarbiyasi jarayonida tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, qoida tariqasida ikki yo'nalishda qo'llaniladi:

1) jismoniy mashqlar amalga oshiriladigan eng qulay shart-sharoitlarni yaratadigan omillar sifatida. Bunda jismoniy mashqlar talabalarga o'z ta'sirini kuchaytiradi. O'rmonda, suv havzasi qirg'og'idagi darslar biologik jarayonlarning faollashishiga, umumiy ko'rsatkichlarning oshishiga, charchoq jarayonining susayishiga va boshqalarga yordam beradi.

2) talabani tanasini sog'lomlashtirish va chiniqtirishda nisbatan mustaqil vosita sifatida, bu ularning irodaviy sifatlarini rivojlantirish uchun ham muhimdir. Shu bilan birga, irodaviy sifatlarni rivojlantirish sharoitida ularni jismoniy mashqlar bilan birgalikda tizimli va majmuaviy qo'llash eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

Ye.P. Il'in, L.S. Vigotskiy, I. D. Bex kabi olimlar o'z pedagogik tadqiqotlarida talabalar, harbiy kursantlar, sport maktablari o'quvchilari o'rtasida turli toifadagi irodaviy sifatlarni shakllantirish (rivojlantirish)ning turli jihatlarini tahlil qilishgan va bu bizga quyidagi xulosalar chiqarishga asos yaratdi :

1. Iroda va irodaviy sifatlarning aniq bir pedagogik konsepsiyasi mavjud emas;

2. Pedagogikada iroda va irodaviy sifatlarning muammosi ularning mohiyati tomondan emas, balki shakllanish, rivojlanish tarafidan ko'rib chiqiladi, shuning uchun tadqiqot predmeti sifatida hodisalarning mohiyati emas, balki shakllari, ularni rivojlantirish, shakllantirish vositalari uslublari o'rganiladi.

3. Turli tizimlar, modellar, dasturlar, texnologiyalarni ishlab chiqish (loyihalash) uchun asos mualliflar tomonidan tadqiqotning maqsadi va vazifalari, iroda va irodaviy sifatlarning mavjud psixologik tushunchalaridan biri asosida tanlanadi.

Talabalarda irodaviy sifatlarning mohiyati va mazmuni haqidagi tushunchamiz quyidagi nazariy prinsiplarga asoslanadi:

- irodaviy sifatlarning mohiyati - bu insonning nisbatan mustaqil, barqaror aqliy shakllanishi bo'lib, uning mazmuni ontogenez bosqichi, shaxsiy tajribasi, bilim, ko'nikmalar, shakllangan motivlar va qarashlar bilan belgilanadi;

- irodaviy sifatlarning birlashgan, ochiq, dinamik, yaxlit tizim vazifasini bajaradi, uning tarkibiy qismlari ma'lum bir faoliyatning ob'ektiv sharoitlariga qarab, bir-birlari

bilan turlicha bog'liq bo'ladi va u yoki bu irodaviy sifatlarning ustunligini ta'minlaydi;

- irodaviy sifatlarning tizimni shakllantirish funksiyasi - bu maqsadga erishish yo'lida yuzaga keladigan turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishning umumlashtirilgan qobiliyatidir;

- faoliyatning muvaffaqiyati va irodaviy sifatlarning shakllanish darajasi o'zaro bog'liq: irodaviy sifatlarning shakllanishi faoliyatning mohiyati va mazmuni bilan belgilanadi, o'z navbatida, faoliyatning muvaffaqiyati irodaviy sifatlarning shakllanish darajasiga bog'liqdir

Gigienik qoidalar va me'yorlar jismoniy tarbiya vositasi sifatida irodaviy sifatlarni ikki yo'nalishda rivojlantirishda ham qo'llanilishi mumkin.

Birinchidan, mustaqil vosita sifatida. O'quvchilar uchun kun, o'qish, ovqatlanish tartibiga amal qilish bu qadar oddiy ish emas va ulardan ozgina irodaviy harakatlarni talab qiladi. Tartiblarga rioya qilish uchun doimiy turtki berish ularning rivojlanishiga katta darajada yordam beradi.

Ikkinchidan, sog'liqni mustahkamlash va jismoniy mashqlar ta'sirining samaradorligini oshirishga yordam beradigan shart sifatida qo'llaniladi.

Jismoniy tarbiya vositalari tarkibini tahlil qilish va ularning o'quvchilarda irodaviy sifatlarning rivojlanishi va namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi ularning quyidagi imkoniyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Birinchidan, Jismoniy tarbiya vositalari o'quvchilarning jismonan takomillashishga bo'lgan istagini qondirish, o'z rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish, sog'likni mustahkamlash, uyg'unlashgan tarzda rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradi.

Ikkinchidan. Ular o'quvchilarda sportda ma'lum yutuqlarga erishgan, jismonan takomillashgan, yuqori shaxsiy sifatlari va obro'ga ega insonlardek bo'lish bilan birga ularga taqlid qilish istagini ham ta'minlaydi.

Uchinchidan. Ular o'quvchilarda boshqalar bilan raqobatda g'alaba qozonishga bo'lgan tabiiy istagini, boshqalardan ajralib turishi, o'zlarini tasdiqlash, obro'ga ega bo'lish,



birinchilardan bo'lish, o'zlariga bo'lgan qiziqishni oshirish, tengdoshlar davrasida munosib o'rin egallash, tan olinishi va hurmatga erishish istagini ta'minlaydi.

To'rtinchidan. Ular turli harakat ko'nikmalari va malakalarini rivojlantiradi, qiyinchiliklarni yengib o'tishda o'zlarini sinab ko'rishlariga imkon beradi, xulq-atvorni tarbiyalaydi.

Beshinchidan. Talabalarning dinamik harakatga, yangilikga, turli hissiyotlarga, tengdoshlari bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Oltinchidan. Ular o'quvchilarning o'quv rejasi talablarini bajarishni xohlashmasa ham jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga qatnashish zarurati orqali majburiyatlilik motivini shakllantiradi.

Talabalarning irodaviy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya vositalarining aniqlangan imkoniyatlari ularga turli xil darajada ta'sir etishi qayd etildi. Ushbu imkoniyatlar o'z-o'zidan emas, balki jismoniy tarbiya darsi, maktabdagi jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar va shu kabi yaxlit pedagogik jarayon orqali amalga oshiriladi.

Amalga oshirilgan ishlarning borishi va ularning natijalarini tahlil qilish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

### **Xulosa**

Sport xonani sport anjomlari va jihozlari bilan jihozlash irodaviy sifatlarini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Bu jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni optimallashtirish uchun juda muhim bo'lishi bilan barobar, talabalarda kuchli irodani shakllantirishda juda muhim omilga ega emasdir. Talaba kuchli va chaqqon bo'lishi va shu bilan birga jur'atsiz, tashabbussiz, mustaqil ravishda qaror qabul qila olmaydigan ham bo'lishi mumkin. Irodaviy sifatlarini shakllantirish dasturining amalga oshirilishidagi kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar o'quvchilarda irodaviy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun yetarlicha darajada qiyin bo'lishi kerak. Va shu bilan birga, ular har bir talaba uchun individual ravishda mos bo'lishi kerak, aks holda u ularni o'zlashtira olmasligini tushunsa, ularni amalga oshirishga bo'lgan qiziqishini yo'qotadi. Buni ilgari taqdim etilgan tadqiqotning umumiy natijalari tasdiqlaydi.

Shunday qilib, talabalarda jismoniy tarbiya darslarida irodaviy sifatlarini shakllantirishda jismoniy tarbiya imkoniyatlarini qo'llash bo'yicha rejalashtirilgan va tizimli ishlar ijobiy natijalar berdi. Bu maqsadga intiluvchanligi, tashabbuskorligi yuqori darajada shakllangan talabalar sonining sezilarli darajada ko'payishida namoyon bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi». Toshkent 2000 y. N.N Jamilova
2. Bex I.D. Ot voli k lichnosti. - M., 1995. - S. 107.
3. Vigotskiy L.S. Problema voli i yee razvitie v detskom vozraste // Sobranie sochineniy. - 1982. - T.2. - S. 441-442.
4. Il'in Ye.P. Psixologiya voli. - Sankt-Peterburg, 2000. - S. 243.
5. Korj S.V. V kolichestvennoy osenke volevogo usiliya // Voprosi psixologii, №1 1979, - S. 118-121.

6. Smirnov B.N. Psixologicheskie osnovi vospitaniya voli v fizicheskom vospitani sporte // Psixologiya / Pod. Red. A.S. Puni. - M.: FIS, 1984. - S. 32-33.
7. Smirnov B. N. Psixologicheskie aspekti vospitaniya volevix kachestv // Psixologiya fizicheskogo vospitaniya i sporta, Pod red.T. T. Djamgarovix i A. S. Puni.- M., 1979. - S. 21-23.
8. Turdimurodov D. Y. Pedagogicheskie faktori vneshney stimulyasii vliyayushiena volevie usiliya shkol'nikov pri fizicheskix uprajneniyax raznogo xaraktera / D. Y. Turdimurodov // Innovasii v pedagogike i psixologii. - 2020. - № 9. Vipusk 3. - S. 21-25.
9. Turdimurodov, Dilmurod (2021) "formation and education of will in schoolchildren in the process of physical education lesson," Mental Enlightenment Scientific-Me
10. Accadjioli P. Cem' tipov lichnocti tipologiya pcixocinteza. - M.: Mip Upanii, 2018. - S. 143.